IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

“MASNAVIY” HIKOYATLARINING O‘ZBEK VA NEMIS TILI TARJIMALARIDA IFODALANISHI

Babayev Maxmud Tashpulatovich
Buxoro davlat universiteti, Nemis va fransuz filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: m.t.babaev@buxdu.uz, maxmudbabaev1963@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24484990

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Sharq tasavvuf adabiyotining shoh asari — Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” dostonidagi hikoyatlarning g‘oyaviy-badiiy ko‘lami hamda ularning o‘zbek va nemis tillaridagi tarjima talqinlari komparativistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hikoyatlarning tematik tasnifi, arxetipik ramzlarning zohiriy va botiniy ma’no qatlamlari yoritib berilgan. Xususan, olmon sharqshunoslari F. Ryukkert, A. Shimmel va O. Ho‘shle tarjimalaridagi filologik va poetik yondashuvlar o‘zbek shoiri Jamol Kamolning forsiy tildan bevosita o‘girgan tarjimasi bilan qiyoslangan. “Savdogar va to‘ti” hikoyati misolida uch tilli (forscha–o‘zbekcha–nemischa) matnlar tahlil qilinib, tasavvufiy konseptlarning tarjimada berilish usullari, lingvomadaniy ekvivalentlik va lakunalarni to‘ldirish mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Rumiy, “Masnaviyi ma’naviy”, tasavvufiy ramzlar, komparativistika, badiiy tarjima, lingvomadaniy ekvivalentlik, Jamol Kamol, Fridrix Ryukkert, Annemari Shimmel, Otto Ho‘shle.

ВЫРАЖЕНИЕ РАССКАЗОВ ИЗ «МАСНАВИИ МАНАВИ» В УЗБЕКСКИХ И НЕМЕЦКИХ ПЕРЕВОДАХ.

Аннотация. В данной научной статье в компаративистском аспекте исследуются идейно-художественное своеобразие притч из шедевра восточной суфийской литературы — поэмы Мавлана Джалаладдина Руми «Маснави-йи ма’нави», а также особенности их переводов на узбекский и немецкий языки. В ходе исследования освещена тематическая классификация рассказов, раскрыты экзотерический и эзотерический смысловые пласты архетипических символов. Филологические и поэтические стратегии немецких востоковедов Ф. Рюккерта, А. Шиммель и О. Хёшле сопоставлены с прямым поэтическим переводом с персидского языка народного поэта Узбекистана Джамала Камала. На примере притчи «Купец и попугай» проведен трехъязычный (персидско-узбекско-немецкий) текстологический анализ, выявлены способы передачи суфийских концептов, проблемы лингвокультурной эквивалентности и механизмы восполнения лексических лакун.

Ключевые слова: Джалаладдин Руми, «Маснави-йи ма’нави», суфийские символы, компаративистика, художественный перевод, лингвокультурная эквивалентность, Джамал Камал, Фридрих Рюккерт, Аннемари Шиммель, Отто Хёшле.

THE REPRESENTATION OF THE TALES FROM THE "MASNAVI-YI MA'NAVI" IN UZBEK AND GERMAN TRANSLATIONS

Abstract. This research article provides a comparative analysis of the ideological and artistic scope of the parables in Mawlana Jalal al-Din Rumi's masterpiece of Eastern Sufi literature, "Masnavi-ye Ma'navi," alongside their translations into Uzbek and German. The study outlines the thematic classification of the narratives and elucidates the exoteric and esoteric semantic layers of archetypal symbols. Specifically, the philological and poetic translation strategies employed by German Orientalists F. Rückert, A. Schimmel, and O. Höschle are juxtaposed with the direct poetic translation from Persian by the Uzbek poet Jamol Kamol. Through a trilingual (Persian–Uzbek–German) textual analysis of the parable "The Merchant and the Parrot," the paper reveals the methods of rendering Sufi concepts, challenges of linguocultural equivalence, and mechanisms for bridging lexical lacunae.

Keywords: Jalal al-Din Rumi, "Masnavi-ye Ma'navi," Sufi symbols, comparative literature, literary translation, linguocultural equivalence, Jamol Kamol, Friedrich Rückert, Annemarie Schimmel, Otto Höschle.

Sharq mumtoz so‘z san’ati hamda islomiy irfon tafakkurining noyob javhari sanalgan Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma’naviy" dostoni umumbashariy ma’naviyat xazinasining eng baland cho‘qqilaridan birini egallaydi. Olti daftarni o‘z ichiga olgan mazkur monumental obida nafaqat Sharq Renessansi davrining falsafiy-estetik qarashlarini, balki insonparvarlik, komillik sari intilish, ilohiy muhabbat va ruhiy poklanish tamoyillarini mujassamlashtirgan. Asar syujetining asosini tashkil etuvchi hikoyatlar, majoziy rivoyatlar va tamsillar teran irfoniy-falsafiy g‘oyalarni sodda, hayotiy va ta’sirchan timsollar orqali o‘quvchi tafakkuriga singdirishning samarali badiiy vositasidir. Globallashuv hamda sivilizatsiyalararo muloqot tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda Sharq klassik merosining Yevropa (jumladan, nemis) va zamonaviy o‘zbek tillaridagi qiyosiy tahlili adabiy komparativistika, tarjima nazariyasi va lingvokulturologiya yo‘nalishlari uchun muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega.

Rumiyning "Masnaviy" dostoni asrlar osha jahonning ko‘plab tillariga o‘girilib kelinmoqda. Yevropa ilmiy-adabiy doiralarida, xususan, nemis sharqshunoslik maktabida Fridrix Ryukkert (Friedrich Rückert), Annemari Shimmel (Annemarie Schimmel) va Otto Ho‘shle (Otto Höschle) kabi zabardast olimlar tomonidan yaratilgan tarjimalar hamda tadqiqotlar asarning olmonzabon kitobxonlar tomonidan teran anglanishiga mustahkam zamin hozirladi. Shu bilan birga, o‘zbek adabiyotshunosligi va tarjimachiligida Jamol Kamol, Asqar Mahkam, Odil Ikrom singari atoqli ijodkorlarning forsiy asl nusxadan bevosita amalga oshirgan nazmiy tarjimalari ushbu bebaho merosning xalqimiz ma’naviy hayotidagi nufuzini yangi pog‘onaga olib chiqdi. Ushbu tadqiqotda "Masnaviyi ma’naviy" tarkibidagi hikoyatlarning g‘oyaviy-tematik ko‘lami, ulardagi tasavvufiy ramzlarning badiiy-estetik funksiyasi hamda mazkur matnlarning nemis va o‘zbek tillariga o‘girilishidagi leksik-semantik, lingvomadaniy va stilistik xususiyatlar qiyosiy aspektda atroflicha o‘rganiladi.

Mavlono Jaloliddin Muhammad Rumiy (1207–1273) XIII asr islom tamadduni va jahon falsafiy fikrining ulug‘ mutafakkiri, tasavvuf ta’limotining yirik nazariyotchisidir. Uning falsafiy dunyoqarashi zohiriy bilimlar bilan botiniy ma’rifatning, ratsional aql bilan ilohiy ishqning uzviy

uyg‘unligiga asoslanadi. Mavlono hayoti va ijodiy evolyutsiyasidagi tub burilish Shams Tabriziy bilan ro‘y bergan uchrashuvga borib taqaladi. Aynan Shams bilan kechgan ruhiy suhbatlar Rumiy qalbida so‘nmas ilohiy ishq alangasini yoqib, uni an’anaviy mudarrislik maqomidan orif-oshiq darajasiga yuksaltirdi. Shams Tabriziy g‘oyib bo‘lgach, Mavlono o‘zining jo‘shqin ruhiy iztiroblarini dastlab “Devoni Kabir” g‘azallarida aks ettirgan bo‘lsa, keyinroq sadoqatli shogirdi va xalifasi Hisomiddin Chalabiyning da’vati bilan “Masnaviyi ma’naviy”ni yaratishga kirishdi.

Olti daftardan iborat “Masnaviy” 25 600 baytdan ortiq hajmga ega bo‘lgan muhtasham didaktik-irfoniy qomusdir. Ramali musaddasi mahzuf (fā‘ilātün fā‘ilātün fā‘ilün) bahrida bitilgan ushbu asar kompozitsiyasi Yevropa adabiyotidagi an’anaviy chiziqli (lineal) syujet qoliplaridan tubdan farq qiladi. Muallif “hikoya ichida hikoya” (qoliplovchi kompozitsiya / Rahmenerzählung) usulidan yuksak mahorat bilan foydalanadi. Muayyan bir voqea bayoni davomida kutilmaganda Qur’oni karim oyatlari, hadisi shariflar yoki chuqur falsafiy mulohazalar keltiriladi, so‘ngra mazkur fikrni dalillash maqsadida yangi bir tamsil yoki rivoyat boshlanadi. Bunday badiiy qurilma kitobxon e’tiborini tashqi voqelikdan botiniy mohiyat sari yo‘naltirishga xizmat qiladi.

“Masnaviy” tarkibidagi ko‘p sonli hikoyatlarni g‘oyaviy-mavzuviy va badiiy-funksional xususiyatlariga ko‘ra uchta asosiy yo‘nalishga ajratib tasniflash maqsadga muvofiqdir:

1. Irfoniy (tasavvufiy-ontologik) hikoyatlar. Mazkur turkumga inson ruhining moddiy vujud qafasidagi g‘aribligi, Vahdati vujud (borliq yagonaligi), fano (o‘zlikni Haq yo‘lida mahv etish) va baqo (Ilohda abadiy barhayotlik), zohir hamda botin dialektikasini yorituvchi rivoyatlar kiradi. Jumladan, dostonning muqaddimasi sanalgan “Naynoma” (ilk 18 bayt) butun asarning g‘oyaviy kaliti bo‘lib, unda nay — o‘zining azaliy vatani (nayiston)dan judo tushgan komil inson ruhining ramzi sifatida gavdalanadi. Shuningdek, “Muso va cho‘pon” hikoyati haqiqiy ilohiy muhabbatning rasmiy qoliplardan ustun turishini, chin iymon qalb samimiyatida mujassam ekanini teran ochib beradi.

2. Axloqiy-didaktik va tarbiyaviy hikoyatlar. Ushbu guruhga mansub asarlarda nafsoniy illatlar, manmanlik, tama, riyokorlik va hasad kabi salbiy xislatlar qoralanib, saxovatpeshalik, sabr-toqat, tavoze, tavakkul, ma’rifat va shukronalik singari yuksak insoniy fazilatlar ulug‘lanadi. “Bo‘ri bilan tulkining arslon panohida ovga chiqqani”, “Xasisning daryoga cho‘kishi”, “Nahviy (tilshunos olim) va kemachi” kabi hikoyatlar bunga yorqin dalildir. Xususan, kemachining nutqidagi xatoni tuzatmoqchi bo‘lgan olimga qarata kemachining: “Daryo girdobida nahv (grammatika) ilmi emas, balki mahv (o‘zlikdan kechish) ilmi asqatadi”, deya bergan javobi chuqur ramziy ma’noga ega.

3. Ijtimoiy-majoziy va hayvonlar haqidagi tamsillar (ezopcha fabulalar). “Kalila va Dimna”, “Sindbodnoma” hamda xalq og‘zaki ijodi motivlariga tayangan bu hikoyatlarda turli jonivorlar (sher, tulki, to‘ti, sichqon, tuya, pashsha) obrazi orqali insoniy fe’l-atvorlar va ijtimoiy muhitdagi nuqsonlar hajv qilinadi. Masalan, “Savdogar va to‘ti” hikoyatida Hindistondan keltirilgan qushning ozodlikka chiqish siri — o‘zini o‘likka solish (ya’ni nafsoniy mavjudlikdan voz kechish) harakati orqali ramziylashtirilgan.

Mavlono Rumiy o‘z falsafiy qarashlarini badiiy gavdalantirishda tamsil san’atini yuksak cho‘qqiga olib chiqqan. Asardagi har bir badiiy timsol ikki qatlamli semantik strukturaga ega: zohiriy (ekzoterik) va botiniy (ezoterik). “Masnaviy”dagi tayanch arxetipik ramzlarni quyidagicha izohlash mumkin:

• Nay (qamish) — ilohiy makondan ajralib, foniy dunyoga tushib qolgan pokiza inson ruhi;

• May va soqiy — ilohiy ishq sharobi va haqiqat sari yetaklovchi murshidi komil;

• Ko‘zgu (oyina) — nafs g‘uborlaridan poklangan musaffo qalb bo‘lib, unda Iloh jamoli namoyon bo‘ladi;

• Quyosh (Shams) — mutlaq Haqiqat ziyosi, ilohiy ma’rifat manbai;

• Qush (to‘ti, bulbul, humo) — jismoniy qafasda asir tushgan samoviy ruh.

Rumiy hikoyatlarning mohiyati xususida shunday uqtiradi: “Ey birodar, qissa bir o‘lchov idishi (poymona)dir, ma’no esa uning ichidagi dondir. Zukko inson donni oladi-yu, idishga mahliyo bo‘lib qolmaydi”. Binobarin, “Masnaviy” hikoyatlari shunchaki ko‘ngilochar rivoyatlar emas, balki Haqiqat asrorini anglashga xizmat qiluvchi irfoniy kalitlardir.

Olmon adabiy-madaniy muhitida Sharq so‘z san’atiga, ayniqsa, fors tasavvuf she’riyatiga nisbatan qiziqish XIX asr boshlarida Yoxann Volfgang fon Gyotening “G‘arbu sharq devoni” (West-östlicher Divan, 1819) nashr etilishi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Gyote Hofiz Sheroziy qatorida Mavlono Rumiyni ham Sharqning buyuk mutafakkir shoiri sifatida e’tirof etdi. Nemis sharqshunosligida Rumiy merosini bevosita fors tilidan tarjima qilish an’anasini esa mashhur shoir va poliglot olim Fridrix Ryukkert (Friedrich Rückert, 1788–1866) boshlab berdi.

1819-yilda Vena shahrida taniqli avstriyalik sharqshunos Jozef fon Xammer-Purgshtall (Joseph von Hammer-Purgstall) bilan uchrashgan Ryukkert uning ko‘magida fors tilini mukammal o‘zlashtirdi. Ryukkert Rumiy g‘azal va masnaviylarini olmon tiliga o‘girish jarayonida nemis she’riyatini yangi vazn va janrlar, xususan, g‘azal shakli bilan boyitdi. Uning 1821-yilda chop etilgan “Oestliche Rosen” (“Sharq atirgullari”) majmuasi hamda keyingi tarjimalari Rumiy hikoyatlarining olmon madaniy makonidan munosib o‘rin egallashini ta’minladi. Ryukkert talqinlarida musiqiy ohangdorlik, qofiya uyg‘unligi va Sharqona poetik uslubni nemis tili me’yorlariga moslashtirish (naturalizatsiya strategiyasi) ustuvorlik kasb etadi.

XX asrda esa Rumiy ijodini nemis tilida tizimli, ilmiy-filologik va badiiy jihatdan eng yuksak saviyaga olib chiqqan buyuk olmon sharqshunosi Annemari Shimmel (Annemarie Schimmel, 1922–2003) bo‘ldi. Professor Shimmel nafaqat “Masnaviy”dan ko‘plab hikoyat va parchalarni yuksak mahorat bilan tarjima qildi, balki Mavlono ta’limotiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar (“Rumi: Ich bin Wind und du bist Feuer” — “Men shamolman, sen olovsan”, “Aus dem Diwan und Masnawi”) muallifi sifatida ham shuhrat qozondi. Olima tarjimalarida filologik aniqlik hamda tasavvufiy ramzlarning teologik-falsafiy mazmunini nemis o‘quvchisiga asl holicha yetkazish tamoyili yetakchilik qiladi.

Irfoniy matnlarni G‘arb tillariga, xususan, nemis tiliga tarjima qilishdagi eng murakkab muammo — Sharq-islom sivilizatsiyasiga xos falsafiy-diniy kategoriyalarni (ishq, fano, baqo, ma’rifat, zikr, tavakkul, dard) xristian-yevropa tafakkuri tushunchalari bilan mexanik tarzda almashtirmasdan, ularning asl semantik mohiyatini saqlab qolishdir. Tarjima nazariyasida bu masala lingvomadaniy ekvivalentlik va adekvatlik muammosini yuzaga keltiradi.

Masalan, nemis tilida “ishq” konsepti aksariyat hollarda “Liebe” leksemasi orqali beriladi. Biroq mazkur so‘z nemis tilida ko‘proq dunyoviy, hissiy muhabbatni anglatadi. Annemari Shimmel bu semantik cheklovni bartaraf etish maqsadida kontekst talabidan kelib chiqib “mystische Liebe” (tasavvufiy ishq), “Gottesliebe” (ilohiy muhabbat) yoki “göttliche Sehnsucht” (ilohiy sog‘inch) kabi analitik birikmalarni qo‘llagan. Xuddi shuningdek, tasavvufdagi “fano” (o‘zlikdan kechish, Haqda erish) tushunchasini nemis tarjimonlari mashhur olmon mistigi Mayster

Ekxart (Meister Eckhart) asarlarida uchraydigan “Entwerdung” (borliqdan xoli bo‘lish, o‘zlikni yo‘qotish) yoki “Selbstaufgabe” istilohlari vositasida adekvat ifodalashga muvaffaq bo‘lganlar.

Nemis tilidagi “Masnaviy” tarjimalarini shakliy-uslubiy jihatdan ikki asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin:

1. She’riy-metrik tarjimalar (Friedrich Rückert): Bunday tarjimalarda nemis she’riyatidagi yamb yoki troxey o‘lchovlaridan foydalanilib, forsiy masnaviyning juft qofiyalanish tartibi (aa, bb, cc...) saqlab qolinadi. Garchi bu usul o‘quvchiga matn ritmikasi va musiqiyligini his etish imkonini bersa-da, vazn va qofiya talabi tufayli ba’zan asl matndagi ayrim irfoniy nozikliklarning qisqarishi yoki ma’no siljishiga olib keladi.

2. Filologik va erkin she’riy tarjimalar (Georg Rozen, Annemarie Shimmel, Otto Ho‘shle): Mazkur oqimda tashqi shakliy qoliplardan ko‘ra matnning falsafiy teranligi va ramzlar tizimini to‘laqonli yetkazish birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Matn ritmik nasr yoki oq she’r shaklida taqdim etilib, har bir murakkab timsol batafsil ilmiy izohlar (Kommentare) bilan boyitiladi.

Tadqiqotning amaliy qismida qiyosiy tahlil obyekti sifatida “Masnaviy”ning birinchi daftaridan o‘rin olgan mashhur “Bir savdogar to‘tisining o‘z xo‘jasi orqali Hindiston to‘tilariga salom yo‘llagani” (Dāstāni bāzargān, ki tūtī mahbusi ӯ ӯro payğom dod ba tūtīyoni Hinduston hangomi raftan ba tiҷorat — Die Geschichte vom Kaufmann, dem sein Papagei eine Botschaft für die Papageien in Indien auf die Handelsreise mitgab) hikoyati tanlanib, uch tilda qiyosiy o‘rganildi. Hikoyat mazmuniga ko‘ra, savdo safari bilan Hindistonga otlangan tijoratchi qafasdagi sevimli to‘tisidan qanday sovg‘a keltirishni so‘raydi. To‘ti Hindistondagi qarindoshlariga o‘zining tutqunlikdagi ahvolini yetkazishni o‘tinadi. Savdogar Hindiston o‘rmonidagi to‘tilarga bu xabarni aytgan zahoti, ulardan biri daraxt shoxidan hushsiz yiqilib jon beradi. Safardan qaytgan savdogar bu g‘aroyib voqeani so‘zlab berganda, qafasdagi to‘ti ham xuddi shunday titrab, o‘zini o‘likka soladi va xo‘jayini uni qafasdan tashqariga chiqarib qo‘yishi bilanoq ozodlikka parvoz qiladi.

Forsiy asl nusxa (Jaloliddin Rumiy)	**O‘zbekcha tarjima (Jamol Kamol)**	**Nemischa tarjima (Otto Ho‘shle)**
Būd bāzargān va ūro tūtīye, Dar qafas mahbūs zēbā tūtīye. Chūnki bāzargān safar ro soz kard, Sūyi Hindūston shudan omuz kard...	Bor edi tujjoru dono to’tisi, Tor qafas qaydida zebo to’tisi. Ul safar jabdug’ini soz ayladi, Hind sari ketmakni og’oz ayladi…	Ein Kaufmann hatte einen Papagei, 'nen schönen Vogel, eingesperrt im Käfig. Als sich der Kaufmann reisefertig machte, um aufzubrechen in das ferne Indien…
Guft tūtīro: «Chī xohī armug’on, K-oramat az xittai Hinduston?» Guftash on tūtī, ki on ҷo tūtīyon Chun bibinī, kun zi holi man bayon. K-on falon tūtī, ki mushtoqi shumost, Az qazoi osmon dar habsi most. Bar shumo kard ӯ salomu dod xost V-az shumo chora, rahi irshod xost. Guft: «Meshoyad, ki man dar ishtiyoq, Ҷon diham, in ҷo bimiram dar firoq?...	To’tidin so’rdi: senga ne armug’on Keltiray, aytgil menga, ay to’tijon. To’ti dedi: sen ko’rib, yetganda payt, To’tilarga holu ahvolimni ayt. Ayt, falon to’ti qafasda zor erur, Sizni qo’msab, tashnayi diydor erur. Ul salomlar yo’llabon, dod istagay, Choravu tadbiru irshod istagay. Aytki, men bunda asiri ishtiyoq, Jon berib, cheksam qafas ichra firoq…	„Und was wünschst du dir?“, fragte er den Vogel, „dass ich dir's bringe aus dem Lande Indien?“ Der Papagei sprach: “Wenn du Papageien dort siehst, sag ihnen, wie es mir hier geht. Sag: Ein gewisser Papagei sehnt sich nach euch, sein Los sperrt ihn in meinen Käfig. Er grüβt euch, wünscht Gerechtigkeit für euch, wünscht Hilfe sich von euch zur rechten Führung. Er fragt: „Ist es gerecht, wenn ich vor Sehnsucht den Geist aufgebe, in der Trennung sterbe?...
Guft tūtī, k-ӯ ba fe’lam pand dod, Ki raho kun lutfi ovozu vidod. Z-on ki ovozat turo dar band kard, Xeştan murda payi in pand kard. Ya’ne, ey mutrib, shuda bo omu xos, Murda shav chun man, ki to yobī xalos.	Qush dedikim: to’ti berdi menga dars, Dedi Xo’ja: so’ylamoqni ayla bas. Chunki ovozing meni band ayladi, O’ldi, lekin bo’yla bir pand ayladi. Dedi ul: tinglar so’zingni omu xos, Menga o’xşab o’lki, topgaysen xalos.	Er sprach: „Durch seine Tat beriet er mich: „Den Reiz der Stimme lass und deine Freundschaft, denn deine Stimme machte dich zum Sklaven“. Dann stellte er sich tot, mir dies zu raten: „Du, der ein Sänger vor den Menschen wurdest, stirb so wie ich, dann wirst du endlich frei.“

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Jamol Kamol o‘zbek va fors tillari o‘rtasida asrlar davomida qaror topgan poetik hamda lingvomadaniy yaqinlikdan unumli foydalangan holda, masnaviyning an’anaviy ramal vaznini o‘zbek aruzida nihoyatda ravon va jarangdor ifodalay olgan. Asl nusxadagi “Būd bāzargān va ūro tūtīye, Dar qafas mahbūs zēbā tūtīye” misralari o‘zbek tilida “Bor edi tujjoru dono to’tisi, Tor qafas qaydida zebo to’tisi” shaklida o‘girilib, qofiya va radif uyg‘unligi to‘liq saqlab qolingan.

Nemis tilidagi talqinda esa Otto Ho‘shle olmon sintaksisining qat’iy me’yorlariga tayanadi. Tarjimadagi “Stirb so wie ich, dann wirst du endlich frei” (“Menga o‘xshab o‘l, shundagina nihoyat ozod bo‘lasan”) satri mashhur hadisi sharif — “Mutu qabla an tamutu” (“O‘lishingizdan ilgari o‘lingiz”) hikmatining aniq poetik ifodasi bo‘lib, nemiszabon o‘quvchiga tasavvufdagi nafsoniy o‘lim va ruhiy hurriyat falsafasini yorqin ochib beradi. Fridrix Ryukkert esa mazkur o‘rinda ko‘proq ritmik ohangdorlikka e’tibor qaratib, matnni nemis xalq qo‘shiqlari (Volkslied) ruhiga yaqinlashtiradi.

O‘zbek va nemis tillaridagi tarjimalarda lingvomadaniy konseptlarning qayta yaratilishi muhim tipologik farqlarni yuzaga chiqaradi:

1. O‘zbek tili lug‘at tarkibida tasavvufiy istilohlar (fano, baqo, nafs, riyo, pir, murid, komil inson, zikr) tarixan o‘zlashgan va faol qatlam sanaladi. Shu bois o‘zbek kitobxoni ushbu tushunchalarni maxsus sharhlarsiz ham badiiy matn kontekstida tabiiy ravishda idrok etadi.

2. Nemis tili uchun esa mazkur kategoriyalar madaniy ekzotizm yoki leksik lakuna (bo‘shliq) vazifasini o‘taydi. Nemis sharqshunos tarjimonlarining asosiy yutug‘i shundaki, ular tavsifiy izohlar (deskriptiv usul) hamda Yevropa xristian mistitsizmi terminologiyasini o‘rinli jalb etish orqali ushbu semantik bo‘shliqni muvaffaqiyatli to‘ldira olganlar.

“Masnaviyi ma’naviy” dostoni hikoyatlarining g‘oyaviy-tematik tarkibi hamda ularning o‘zbek va nemis tillaridagi tarjima talqinlarini qiyosiy tadqiq etish asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

• Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asaridagi hikoyatlar alohida olingan shunchaki didaktik syujetlar emas, balki butun dostonning yaxlit irfoniy-falsafiy konsepsiyasiga xizmat qiluvchi murakkab semantik tamsillar tizimidir. Muallif qo‘llagan qoliplovchi kompozitsiya (ramka-konstruksiya) kitobxon tafakkurini zohiriy voqelikdan botiniy haqiqatga, hissiy idrokdan aqliy va ruhiy kamolotga bosqichma-bosqich olib chiqadi.

• Hikoyatlarning mavzu ko‘lami uchta asosiy g‘oyaviy yo‘nalish atrofida birlashadi: ontologik-irfoniy (ruhning o‘z azaliy Asliga qaytishi va komillik), axloqiy-tarbiyaviy (nafs illatlarini fosh etish hamda ma’naviy fazilatlarni qaror toptirish) va allegorik-ijtimoiy (masal va latifalar orqali jamiyat axloqini isloh qilish).

• Olmon sharqshunosligida F. Ryukkert, O. Ho‘shle va A. Shimmel tomonidan yaratilgan tarjimalar G‘arb olamida Sharq tasavvuf falsafasini idrok etishning ikki mukammal tamoyilini namoyon etadi: F. Ryukkert talqinida poetik shakl, musiqiylik va g‘azal-masnaviy poetikasining nemis she’riyatiga moslashuvi ustuvor bo‘lsa, O. Ho‘shle va A. Shimmel tarjimalarida filologik aniqlik, ramzlarning irfoniy mohiyatini falsafiy sharhlash hamda mazmuniy adekvatlik birinchi o‘ringa chiqadi.

• O‘zbek tilidagi tarjimalarda, jumladan, Jamol Kamol ijodiy talqinida asl matnning ruhiy-ohangdoshligi, aruz vazni imkoniyatlari va mumtoz Sharq she’riyati an’analari yuksak badiiy saviyada o‘z aksini topgan. O‘zbek va fors tillari o‘rtasidagi tarixiy-genetik mushtaraklik tufayli ko‘plab irfoniy konseptlar o‘zbek o‘quvchisiga qo‘shimcha izohlarsiz bevosita tushunarli bo‘lib boradi.

• Uch tilli (forscha–o‘zbekcha–nemischa) matnlarning qiyosiy tahlili shuni tasdiqlaydiki, madaniyatlararo badiiy tarjimada to‘laqonli adekvatlikka erishish uchun tarjimon nafaqat ikki

tilning grammatik va leksik tizimini, balki asar yaratilgan davrning falsafiy, diniy va lingvomadaniy paradigmasini ham chuqur egallagan bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мавлоно Ҷалолуддин Муҳаммади Балхӣ. Маснавии маънавӣ: Дафтари аввал ва дувум. — Душанбе: «Адиб», 2013. — 480 саҳ.
2. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий / Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. — Тошкент: «MERIYUS», 2010. — 864 б.
3. Тўхсанов Қ. Румий “Найнома”сининг ўзбекча таржималари. — Бухоро: «Дурдона», 2018.
4. Dschalāl ad-Dīn Rūmī. Masnawī. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Erster Band. Buch I–III. Aus dem Persischen von Otto Höschle. — Xanten: Chalice Verlag, 2020.